

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MT 4 bosqich M.Kamolova

**“ O‘QUVCHI –YOSHLARDA ShAXSLARARO MUNOSABATNI TO‘G‘RI
TASHKIL ETISH MUAMMOLARI.”
MAVZUSIDAGI**

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

I.Sattarova

Andijon – 2015

MAVZU: O'QUVCHI –YOSHLARDA SHAXSLARARO MUNOSABATNI TO'G'RI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI.

REJA

I.KIRISH

- 1. O'quvchi-yoshlarning shaxslararo munosabatlari tuzilishi va ularni diagnostika qilish metodlari.**
- 2. O'quvchi-yoshlarning shaxslararo munosabatlarini integral diagnostika yordamida pedagogik nazorat qilish metodikasi.**
- 3. Ijtimoiy-psixologik trening shaxslararo munosabatlarni shakllantirishning noyob usuli.**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Tarbiyaviy jarayonda qulay ijobiy dinamikani tadbiq etish maqsadida shaxsni umumiy darajada, keng qamrovli o'rganishda predmetlararo yaxlitlikka, pirovardida integrallikka intilishni pedagogikada muhim tendensiya sifatida belgilash zarur.

Pedagog tarbiyaviy ishi sifatini baholash mezonlarining noaniqligi, natijalarning haqiqatdan yiroqligi ko'p hollarda tarbiyaviy jarayonda murakkab vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. O'quvchi-yoshga nisbatan tarbiyaviy ta'sirni pedagogik nazorat qilish, shuningdek, har bir pedagogga o'z tajribasini umumlashtirish va tahlil qilish hamisha zarur.

Shaxs – ijtimoiy munosabatlar mahsuli ekan, demak maktab o'quvchisi doimo tengdoshlari, pedagoglar bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu esa o'quvchi shaxsining eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Shaxslararo muloqot ko'p hollarda boshqa odamlarga nisbatan munosabatning shakllari va xarakteri bilan belgilanadi. Insonning o'z jamoasi a'zolariga munosabati masalasi (do'stona, rasmiy) pedagogik amaliyot uchun katta ahamiyat kasb etib, psixologik-pedagogik tadqiqotlar uchun keng yo'l ochadi.

Mavzusining hozirgi kundagi zaruriyati va dolzarbligi aynan shu masalalarning keng talqin qilinishi hamda shaxslararo ta'sirning qonuniyatlari va mexanizmlarini bilish va ularni o'quvchi-yoshlar o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda inobatga olish zarurati bilan belgilanadi.

Mavzuning metodologik asosi. O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va ma'ruzalarida maktabgacha ta'limni rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir fikrlari hamda yondashuvlari, O'zbekiston respublikasi Hukumati, Xalq ta'limi vazirligining maktabgacha ta'limni sifat va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy Hujjatlari, 2012 yil 17 fevralda o'tkazilgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni

tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Halqaro konferentsiya materiallari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik manbalar.

O‘quvchi-yoshlarning tarbiyasi, ularning shaxslararo munosabatlarini o‘rganish masalasi, ayniqsa uni milliy istiqlol g‘oyasi asosida o‘rganish vatandosh olimlarimiz S.Annamuratova, V.Karimova, Sh.Kurbonov, U.Maxkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, U.Nishonaliev, B.Raximov, R.Safarova, E.Seytxalilov, O.Hasanboeva, D.Sharipovalar tomonidan keng tadqiq qilingan.

Mavzuning maqsadi. O‘quvchi-yoshlarning shaxslararo munosabatlari tuzilishi, ularni diagnostika qilish metodlarini aniqlash, mavjud shart-sharoit va imkoniyatlarni o‘rganib chiqish, mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash.

An‘anaviy pedagogika hamma vaqt shaxslararo munosabatlarni o‘rganish vazifasini qo‘yganki, shu bilan bog‘liq holda qator metodik vositalar ishlab chiqilgan. Ular o‘quvchilarning sinfdoshlariga munosabatlarini, ya’ni emotsional xayrixohligini, bolalar jamoasining yetukligini baholashni va shu asosda tarbiyaviy dasturlar tuzishni ko‘zda tutadi.

Keng tarqalgan tadqiqot metodlari sifatida sotsiometriyani, kuzatishni, anketa so‘rovini aytish mumkin. Bizningcha, ushbu metodikalarni ularda har bir o‘quvchi tomonidan umumiy ko‘rsatkichga, sinfning shaxslararo munosabatlar sifati bo‘yicha biron-bir ko‘rsatkichini ob‘ektiv baholashning nisbiyligiga qo‘shiladigan hissada koeffitsient salmog‘ining mavjud emasligi tufayli mukammal deb atash mumkin emas.

Ta’lim jarayoniga tadbiq etgan holda, biz butun sinfning va alohida olingan bir o‘quvchining o‘zlashtirishi haqida gapirishimiz mumkin. Masalan, butun sinf bo‘yicha o‘rtacha baho chiqarish sinfning o‘zlashtirishi ustidan integral nazorat o‘rnatish vositasi bo‘ladi (butun sinf bo‘yicha yagona guruh sifatida o‘rtacha baho chiqarish mumkin va bu sinfning o‘zlashtirishi, uning o‘sishi ustidan integral nazorat o‘rnatish vositasi bo‘ladi).

O‘quvchi-yoshlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda esa sinf yutuqlarini ta’lim jarayoniga o‘xshash integral yaxlit belgilash yetishmaydi.

O'qituvchilar O'quvchi-yoshlar jamoasini "ahil" yoki "noahil" sinf kabi emotsional, sub'ektiv baholash bilan chegaralanib qolmoqda, shuning uchun ham baho hamma vaqt ham haqiqatga to'g'ri kelavermaydi. Mualliflik metodikasi ma'lum darajada butun sinfning emotsional holatini baholashda raqamli integral ko'rsatkichlardan foydalanish hisobiga sub'ektivizmdan qochish imkoniyatini beradi.

Hozirgi jamiyatda integral pedagogika g'oyalarining rivojlanishi bilan bog'liq holda endilikda pedagog va psixologlar ma'lum yo'nalishlar bo'yicha muammolarni hal etish uchun birgalikda harakat qilishlari zarurati yetildi. Ular quyidagilar: o'smirlarning shaxslararo munosabatlari holatini samarali pedagogik nazorat qilish, ularda zarur muloqot ko'nikmalarini tarbiyalash bo'yicha maxsus ish olib borish, o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etishda sinf jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhitni hisobga olish.

1. O'QUVCHI-YoShLARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARI TUZILISHI VA ULARNI DIAGNOSTIKA QILISH METODLARI

Kishilar o'rtasidagi kundalik munosabatlarda do'stlik va adovat, yolg'izlik va yaqinlik, oila va jamoa paydo bo'ladi. Muloqatda inson o'zligini anglaydi, tan olinadi va o'z yo'lini topadi. Muloqot-bu axborot va predmet aloqa bo'lib, bu jarayon davomida shaxslararo munosabat shakllanadi va namoyon bo'ladi. Shaxslararo faol muloqot bu tarbiya jarayonining aniq maqsadga yo'naltirilganligini tasdiqlovchi birdan-bir omildir.

Guruh birdamligi-bu guruh ichidagi shaxslararo aloqada guruh hayotiy faoliyatining barqarorligi va bardavomligini ta'minlovchi tartiblilik, muvofiqlik va mustahkamlikdir. Guruh birdamligi uning tarkibidagi individlarning o'zaro munosabatlari natijasi o'laroq paydo bo'ladi. U guruh a'zolarining barchasiga birday ta'sir etuvchi va guruh yaqinligini keltirib chiqaruvchi barcha kuchlar yig'indisini aks ettiradi Bu "kuchlar" individ uchun guruhning kerakligi yoki guruhga a'zoli uchun qoniqishi bilan izohlanadi. Ammo keraklilik ham, qoniqish ham, guruhning sof emotsional yo'nalishdagi munosabatini aniqlash yordamida tahlil qilinadi. Shuning uchun ham birdamlilik bu holatda guruh a'zolari emotsional afzalliklari tizimining ma'lum tavsifi sifatida olib qaraladi. Ushbu ta'rifda individga ta'sir etuvchi yo'nalish, vektor kabi atamalarni ifodalovchi, ya'ni individni guruhga tortuvchi, undan itaruvchi emas, ijobiy kuchlar tushunchasi yetishmaydi.

Shaxslararo yaqinlik-uzoqlik, hush ko'rish-hush ko'rmaslikni ikki shaxsning muayyan sharoitdagi o'zaro harakatlaridagi mos kelish va mos kelmaslikning sharti va natijasi deb qarash ham mumkin. Amaliyotdan ma'lumki, ko'p hollarda guruhdagi qovushmaslik ikki taraflama hush ko'rishlikning yo'qligi va ikki taraflama teskarilikni majudligi bilan izohlanadi va aksincha, ikki taraflama yaqinlik (hush ko'rishlik) nafaqat birga yashash va dam olish, balki guruh faoliyatidagi muvaffaqiyatlarni ham osonlashtiradi Shunday qilib, shaxslararo

yaqinlik uzoqlik, hush ko'rish hush ko'rmaslik mexanizmlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyat kasb etadi.

Metodik yondashuv-guruhni umumiy jihatdan emotsional baholashni o'rganish. U o'sib boruvchi savollar texnikasidan iborat. Ayrim hollarda sinalayotganlar guruhga umumiy baho beradi: "Siz uchun guruh qanchalik yoqimli?", "Siz guruh a'zolariga qay darajada bog'langansiz?" Boshqa hollarda o'zining guruhga a'zolik darajasini baholaydi. "Siz mazkur guruhga a'zo bo'lib qolishni hohlaysizmi?", "Agar Sizda xuddi shu ishni xuddi shu maoshga boshqa guruhda bajarish imkoniyati tug'lsa, Siz guruhdan-guruhga o'tishga qanday qaragan bo'lar edingiz?". Yakuniy ko'rsatkichlar individual ma'lumotlarning o'rtachasidan kelib chiqib belgilanadi. Bu metodik usulni baholar ekanmiz, bunchalik "ko'ndalang" savollarga samimiy javob olish mushkul, degan fikrga qo'shilamiz. Guruh birdamligining yagona mavjudlik shakli-individual emotsionallikni afzal bilish. Birdamlikni amaliy tarzda o'rganishning bosh omili alohida individning qoniqish darajasini baholash hisoblanadi. Ijtimoiy o'lchov yo'nalishi oqimida birdamlik shaxslararo munosabatlarning rivojlanish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq holda joylashgan bo'ladi. Bu fikr bizning metodikamiz qimmatini va uni guruh birdamligini baholash uchun qulayligini tasdiqlaydi. An'anaviy ijtimoiy o'lchov tadqiqotlaridan farqli ravishda biz o'zaro tanlovlarni nafaqat son, balki sifat jihatidan tahlil qilamiz. Bundan tashqari biz o'zaro tanlovlar sonini qandaydir ma'lum sonlar bilan (masalan, o'n imkoniyatdan uch yoki to'rt tanlov) sun'iy chegaralamaymiz, aksincha o'z munosabatini istisnosiz guruhning har bir a'zosiga nisbatan baholashga da'vat etamiz. Yuqorida bayon etilgan yondashuvda asosiy urg'u o'zaro tanlovlarning soniga qaratildi. Birdamlik shaxslararo attraksiyaga bog'liq bo'lishi mumkin. O'zaro ikki taraflama attraksiya o'zaro muhabbatni tushunishga to'g'ri keladi. Muhabbat bir taraflama (va xatto javobsiz) va ikki taraflama bo'ladi. Do'stlik bir taraflama bo'lmaydi, so'zning o'zida ham ikki tarafalama munosabat ko'zda tutiladi. Guruh birdamligining bir qadar to'liq va aniq ta'rifi Mayersga tegishli bo'lib u yozadi: "Birdamlik-"Biz"

hissi, guruh a'zolarining bir-birlari bilan bog'liqlik darajasi, masalan, o'zaro hush ko'rish hisobiga yuzaga keladi.

Shunday qilib, insonlar doimiy ravishda o'zaro aloqada, munosabatda bo'ladilar va bunda muqarrar ravishda ularning individual xususiyatlari namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, har bir ijtimoiy rol xatti-harakatlarni mutlaq shablon ekanligini belgilamaydi, u har doim o'zining ishtirokchilari uchun ayrim "imkoniyatlar diapazoni"ni qoldiradiki, uni shartli ravishda ma'lum "rol bajarish uslubi" deb atash mumkin. Aynan shu diapazon shaxslararo munosabatning ikkinchi qatori bo'lgan tizim ichidagi egasiz ijtimoiy munosabatlar qurilishi uchun asos hisoblanadi. Shaxslararo munosabat birlamchi va ikkilamchi o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oladi. Birlamchi o'zaro munosabatlar-kuchli emotsional aloqalarga asoslangan uzoq davom etuvchi munosabatlardir. Ikkilamchi o'zaro munosabatlardan farqli ravishda ular siljiluvchan bo'lib ko'plab rollarni, vaziyatlarni, xatti-harakat modellarini qamrab oladi; ular odatda o'zaro aloqaning qat'iy qoidalar bilan chegaralanmagan bo'lib, unda ishtirok etuvchi kishilar bir-birlarini juda yaxshi biladi. Birlamchi o'zaro munosabatlar shundayki, ulardagi bir qatnashchi ikkinchi qatnashchini yangi odam bilan almashtira olmaydi. Ikkilamchi o'zaro munosabatlar-kishilar o'rtasidagi nisbatan qisqa muddatli aloqa bo'lib, chegaralangan o'zaro aloqalar bir muncha aniq qoidalar va bir muncha ma'lum ijtimoiy rollar bilan belgilanadi. Birlamchi o'zaro munosabatlardan farqli ravishda ularda kamdan-kam xolatda katta emotsionallik jalb etiladi va munosabat qatnashchilari bir muncha oson almashishlari mumkin. Real shakllangan guruhlarni o'rganishda tabiiy ravishda diqqat e'tibor boshqa odam haqidagi dastlabki tasavvur hosil qilish muammosidan sinfda birgalikda faoliyat ko'rsatayotgan o'rtog'i haqida shakllangan tasavvurning amal qilish muammosiga ko'chadi. Keltirilgan faktlar sinf jamoasi pedagogik tushunchasining mohiyatini izohlashni talab qiladi.

Shunga qaramasdan ular sifat jihatdan bir-biridan farq qiladi. O'quvchi-yoshlar jamoasida munosabatlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Rasmiy munosabatlar. Ular lavozim asosida paydo bo‘ladi, qonun bilan belgilanadi, nizomlar, qoidalar va boshqalar bilan nazorat qilinadi.

2. Norasmiy munosabatlar. Ular insonni-insonga shaxsiy munosabati asosida yuzaga kelib, bu kishilar uchun umumiy tartibda qabul qilingan qonunlar va me‘yorlar, qat’iy o‘rnatilgan talablar va qoidalar bo‘lmaydi. Munosabatlarning aynan shu turi bizning tadqiqotimiz predmeti hisoblanadi.

3. Vertikal munosabatlar: Bu shaxslararo aloqalar bo‘lib, ular jamoa ichida rasmiy yoki norasmiy lavozim pog‘onasida turli o‘rinni egallagan raxbar va uning xodimi, liderlar va jamoaning boshqa a‘zolari, umuman odamlar o‘rtasida shakllanishi mumkin.

4. Gorizontal munosabatlar: Bu jamoada bir xil rasmiy yoki norasmiy o‘rinni egallagan a‘zolarining shaxslararo aloqasi. Bu ta’rif bizning nazarimizda aniq emas. Gorizontal aloqalar tushunchasi asossiz chegaralangan. Guruhda vertikal munosabatlar ham gorizontal munosabatlar ham birday mavjud bo‘lishi mumkin. Bularni qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas.

5. Shaxslararo amaliy munosabatlar-ular kishilarning birgalikda ishlashi yoki shu sababga bog‘liq holda yuzaga keladi.

6. Shaxsiy munosabatlar-bu bajarayotgan ishlaridan qat’iy nazar insonlar o‘rtasidagi munosabat. Ularni vertikal xolatda ham gorizontal holatda ham tuzish mumkin. Rivojlangan jamoada o‘zaro munosabatlarning shaxsiy va amaliy tizimi shakllanadi-ki, ular bir-birini yaxshi to‘ldirib, jamoa a‘zolarining talab va ehtiyojlarini qondirishda turli darajada rol o‘ynaydi.

7. Shaxslararo ratsional munosabatlar. Ularning asosini insonlarning qay darajada bir-birini bilishi va atrofdagilarning ularga nisbatan ob’ektiv bahosi tashkil etadi.

8. Emotsional munosabatlar. Bu insonning insonga nisbatan shaxsiy, individual qarashlariga asoslangan sub’ektiv bahosidir. Bu kabi munosabatlar faqat ijobiy yoki salbiy emotsiyalar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi; ular xar doim ham inson haqida to‘g‘ri va ob’ektiv ma’lumotlarga asoslanmaydi.

9. Asosiy faoliyat zaminiga qurilgan munosabatlarni faoliyat mazmunida aks etgan munosabatlar deb ataladi.

10. Faoliyat mazmunida aks etgan munosabatlar. Ular bu faoliyat bilan bevosita bog'lanmagan bo'ladi. Shuni ham e'tiborda tutish kerakki, rivojlangan jamoani asosini birgalikdagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat va uning ichida shakllangan qatnashchilarning muloqoti va o'zaro aloqalari tashkil etadi

Shunday qilib, shaxsiy o'zaro munosabatlar tizimi O'quvchi-yoshlar guruhining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-yoshlarning bir-biriga shaxsiy ishonchi, hayrihohligi zamidida rasmiy munosabatlar yaxshi va oson shakllanadi, yaxshi tashkillashtirilgan birgalikdagi faoliyat esa shaxsiy hayrihohlikning mustahkamlanishi va chuqurlashishiga hizmat qiladi. Sinf tashkiliy tuzilmasini aniqlash juda ham, oson, chunki u sinfdagi vazifani taqsimlanishiga bog'liq. Shaxsiy o'zaro munosabatlar tuzilmasi esa o'rganishning maxsus uslublarini talab qiladi. Shaxsga kuchli ta'sir etadigan mikromuhitni aniqlash uchun pedagog ham, psixolog ham mazkur tuzilmani bilishi zarur. Shaxsiy o'zaro munosabatlarni bilgan pedagog uni tarbiyaviy ishida hisobga olishi, unga ta'sir o'tkazishi, zarur holatda uni qayta ko'rib chiqishi mumkin. Masalan, o'quv ishchi guruhini shakllantirishda o'qituvchi shu predmet bo'yicha O'quvchi-yoshlarning nafaqat bilim va qobiliyatlari darajasini, balki ularning do'stona munosabatlarini ham hisobga oladi.

2. O‘QUVCHI-YoShLARNING ShAXSLARARO MUNOSABATLARINI INTEGRAL DIAGNOSTIKA YoRDAMIDA PEDAGOGIK NAZORAT QILISH METODIKASI.

O‘quvchi-yoshlarning shaxslararo munosabatlari o‘rganish muammosi vaqtga taalluqli bo‘lmagan, doimiy ravishda dolzarb hisoblanuvchi muammodir. O‘qituvchining ta‘lim-tarbiya ishlarini sifatli va samarali tashkil qilish sinf jamoasini naqadar yaxshi bilishi bilan belgilanadi. Jamoadagi faoliyat va o‘shish dinamikasini nazorat qilish faoliyat ob‘ekti sifatida pedagogik nazorat qilish, O‘quvchi shaxsning rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda butun jamoaning rivojlanish darajasi haqida har tomonlama ma‘lumot olish va shu asosda integral diagnostika metodi, shakli va korreksion metodika mazmunini boyitishiga xizmat qiladi. Buning uchun har bir o‘qituvchi nafaqat liderlar to‘g‘risida, balki sinfdoshlari chetga chiqarib qo‘yganlar haqida ham, kim “eng do‘stona” kayfiyatda, kim “do‘stlikni buzuvchi” hisoblanadi, aniq ma‘lumotga ega bo‘lishi kerak. Bu axborotga tayanmasdan turib sinfda samarali tarbiyaviy ta‘sirni amalga oshirish mumkin emas.

Bizning metodikamiz asosi qilib E.Bogardusning shaxslararo muvofiqlik shkalasi olingan. U respondentlarning foiz taqsimotini muloqot masofasi darajasida belgilanishi bo‘yicha chiqarish imkonini beradi va faqat xalqaro munosabatlarni o‘rganish uchun foydalanilmoqda.

E.Bogardusning zamonaviylashgan shkalasi maktab sinflaridagi shaxslararo munosabatlarni chuqur o‘rganish uchun qo‘l keladi. Bizning shkalamizdagi sifat qiymati E.Bogardusdagi kabi butun sonlar-ballarga emas, birlikning qismidagi sonlarga o‘tkazildi. Tuzgan shkalamizdagi ijobiy qiymatlarni biz salbiylar bilan to‘ldirdik. Tadqiqot metodi o‘quvchilarga sinfdoshlari bilan munosabatlarni mustaqil baholashni taqozo etadi.

Anketaning asosiy savoli gap sifatida shakllantirilganki, uni guruhning har bir a‘zosi nisbatan mustaqil tugatish va jadvalga o‘zining bahosini kiritish kerak:

"Men bu odamga sifatida ega bo'lishni hohlardim?" savoli istak darajasini, go'yo har bir respondent shaxslararo muloqotda o'zi uchun belgilagan ideal istiqbolni baholashga imkon beradi.

Son jihatdan baholash uchun psixodiagnostik shkaladan foydalanilib, unda muayyan son ko'rsatkichlariga mos keluvchi muloqot masofasining sifat darajasi ajratildi. Har bir respondentga to'ldirilishi kerak bo'lgan tayyor jadval ko'rinishidagi anketa berildi. Jadval tadqiqotning hamma ishtirokchilari familiyasini o'z ichiga oladi.

Bu shkalada odam jamoaning boshqa a'zolariga nisbatan o'zining munosabatini tanlab olishi mumkin. Ya'ni har bir o'quvchi sinfdoshlari ro'yhatini olib har bir familiya ro'parasiga xissiy munosabatini yoki muloqot masofasini javob raqami ko'rinishida yozib qo'yishi mumkin. Shunday qilib, bu shkalada o'quvchi jamoaning boshqa a'zolariga nisbatan o'z imkoniyatini sonda aks ettiradi. Umuman biz har bir respondentning har bir sinfdoshiga munosabatining hissiy bahosiga ega bo'ldik. Ta'kidlash muhimki, respondentlarning sinf jamoasidagi shaxslararo munosabatlar rivojlanishi darajasi haqidagi bilvosita fikrlari emas, balki istalgan muloqot masofasining ko'rsatkichlar bo'yicha barcha juft aloqalarni ko'rib chiqishga imkon beradigan to'g'ridan-to'g'ri baholar olindi. Boshqacha aytganda, insonni qabul qilmaslikning oxirgi darajasi sifatida baholash imkoniyati mavjuddirki, u umuman bu dunyoda bo'lmasin (shartli ravishda biz bu variantga son o'lchovida minus 1 berdik) xuddi shunday eng yaqin munosabatlarning boshqa varianti men ushbu odamni yaqin do'st sifatida bilishni istardim-insonni qabul qilishning maksimal ijobiy xolati (shartli son ifodasi plus 1)

Anketada berilgan savolga javobni bilib, sinfdagi juft munosabatlar diagnostikasini o'tkazish va ular asosida pedagogik o'quv tarbiyaviy ta'sir vositalarini tanlash maqsadida pedagogik diagnostikaning tushuncha apparatiga qo'yish mumkin bo'lgan qator ko'rsatkichlarning qiymatini hisoblash mumkin. Diagnostikaga va keyinchalik davriy pedagogik nazoratga o'quvchilarning shaxslararo munosabatlari darajasi bog'liq bo'ladi. Birlamchi materialni ishlash

jarayonida birinchi jadvalda ko'rsatilgan tamoyil bo'yicha respondentlar javoblari "sifat" shaklidan "son" shakliga o'tkazildi.

Son baholari birlik qismida 0,25 qadam bilan ifodalandi. Qadam O'quvchi-yoshlarga taqdim etilgan anketalardagi javoblarning ko'rib chiqish natijalari bo'yicha 30-maktabda o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar vositasi sifatida tanlandi. Anketalarda o'quvchilarga ularning fikrlariga, muloqot darajalariga mos keluvchi nuqtalarni qo'yish taklif etilgandi.

Shunday qilib bizda o'quvchining muloqot masofasi darajasini baholash mumkin bo'lgan -1dan +1gacha kenglikdagi sifat-son shkalasi paydo bo'ldi. Shkalaning son xarakteri o'rta qiymatini hisoblashga ko'rsatkichlarni sof sifat shkalasiga nisbatan aniqroq va yaxshiroq qiyoslashga imkon beradi. Eng uzoq masofa -1, eng yaqin masofa esa +1.

Hohlagan mulokot masofasini tanlash variantlari

2.2.1-jadval

№	Javob varianti	Miqdoriy (son) baxo
1	Yaqin do'stni	1
2	Ba'zan birga vaqt o'tkazuvchi og'aynimni	0,75
3	Ishdagi sherigim	0,5
4	Faqat salomlashib turadigan tanishimni	0,25
5	Ahamiyatsiz odamni	0
6	Muloqot kilish kerak bo'lmagan begona odamni	-0,25
7	O'zini mendan uzoq tutadigan odamni	-0,5
8	Jamiyatdan chetga chiqib qolgan kishini	-0,75
9	U bu dunyoda umuman bo'lmasin	-1

Anketa o'tkazishdan olingan dastlabki ma'lumotlarni biz butun sinf uchun umumiy jadvalga (2.2.2.) jamladik va har bir respondent uchun ham vertikal ustun bo'yicha, ham gorizontal chiziq bo'yicha o'rta va boshqa statistik ko'rsatkichlarni

hisoblab chiqdik. Sonli jadval juft munosabatlar matritsasini (qolipini) tashkil qiladi, ammo ikki tomonlama emas, balki bir tomonlama, chunki biz faqat bir tomondan, bir respondentdan baho oldik. Ikki tomonlama baholashni qo‘shish yordamida esa ikki tomonlama munosabatlarni ham baholash mumkin edi.

Guruhning hamma a’zolariga baho jadvali (n):

№ Guruh a’zosi 1 2n

1. Familiyasi Ismi.

2. Familiyasi Ismi.

n. Familiyasi Ismi.

Barcha kataklardan olingan o‘rtacha qiymat ushbu guruhdagi muloqotning o‘rta darajadagi masofasini ifodalaydi. Excel elektron jadvaldagi standart statistik metodlar yordamida biz o‘rtacha qiymati va har bir ustun va har bir misra uchun standart og‘ish ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqdik. Bu o‘rinda har bir respondent uchun mos ravishda proeksiya va maqom darajasi qiymatini qo‘lga kiritdik.

Proeksiya va maqom ko‘rsatkichlaridan foydalanib biz sinfning xayrixoh va hayrixoh bo‘lmagan a’zolarini, shuningdek, bir qadar yuqori va bir qadar past maqomga ega bo‘lgan O‘quvchi-yoshlarni aniqlay olamiz.

Shunday qilib yaratilgan metodika quyidagilarga imkon beradi:

1. Har bir respondent uchun maqom va proeksiya bazaviy ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida konkret o‘quv guruhida barcha juft aloqalarni tadqiq etish va bular asosida o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarni to‘g‘ri tanlash maqsadida sinfdagi shaxslararo munosabatlar darajasini integral baholash mumkin.

2. Shaxslararo munosabatlar holatining dastlabki darajasi qiymatiga ega bo‘lishda zarur bo‘lgan har bir aloqaning emotsional (xissiy) salmog‘ini to‘g‘ridan-to‘g‘ri, reyting baholashdan foydalanish.

3. Eng kichik birlikkacha aniqlikdagi ob’ektiv baholashni o‘tkazishga imkon beradigan interval shkalani qo‘llab hisob-kitob olib borish. Buning natijasida nafaqat o‘quv guruhlaridagi turli sub’ektlarni, balki turli sondagi sub’ektlarga ega bo‘lgan har-xil guruhlarini o‘zaro qiyoslash imkoniyati tug‘iladi.

4. Ijobiy, salbiy shaxslararo aloqalarni, shuningdek, ularning jamlanmasini baholash ya'ni sinfdagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va tashkil qilish uchun zarur bo'lgan integral ko'rsatkichlarni berish.

3. IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TRENING ShAXSLARARO MUNOSABATLARNI ShAKLLANTIRISHNING NOYOB USULI

Shaxs tarbiyasi bilan shug'ullanish uni kelgusidagi murakkab va xilma-xil muloqot jarayonlariga psixologik tayyorlaydi. Bunday tayyorganlik, ayniqsa, bo'lg'usi psixologlar uchun muhimki, ular o'z kasblari tufayli turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan nihoyatda o'tkir dadlilik, odo va kishilar psixologiyasini bilgan holda ularni tqg'ri tushunish malakasini talab qilinadi. Bir so'z bilan aytganda, bu muloqotdagi bilimdonlikdir. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada noyob usulib or, u ham bo'lsa, ijtimoiy-psixologik treningdir.¹

Trening usulining ijtimoiy –psixologik mohiyati shuki, bu usul orqali odamlarda muloqot malakalri hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini to'g'ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, trening muloqotga qrgatishdir. To'g'ri, odam kishilar jamiyatida yashar ekan, kundalik muloqot jarayonida turli muloqot shakllariga o'rganib, o'zida ma'lum muloqot malakalarini stixiyali tarzda yoki maqsadga qaratilgan holda ham hosil qilinishi mumikn. Ohirgi qolat hozirgi zamon kishisining turli ishlab chiqarish va muomala sharoitlarida to'g'ri moslashishiga yordam beradi. Bu narsa insonda, Yu.N.Yemelyanov ta'biri bilan aytgan, ijtimoiy aql-zakovatga ega bo'lgan shaxs o'zini ham, o'zgalarni ham, ularning o'zaro munosabatlarini ham to'g'ri anglaydi hamda turli muloqot shakllarini bashorat qila oladi. Ana shaunday aqlning bo'lishi uchun psixologlar maxsus tayyorgarlik guruhleri yoki trening guruhleri tashkil etishni allaqachon taklif qilib chiqishgan. Shunday maqsadlarda G'arbda mashhur bo'lgan T-gurhlar

¹ Бу ҳақда қаранг: П е т р о в с к а я Л. А. Компонентность в общении. Социально-психологический тренинг.-М.1989. Е м е л ь я н о в Ю. Н. Активное социально-психологическое обучение.-Л., 1985 ва бошқалар.

tashkil etilib, unga ixtiyoriy muloqot jarayonida ma'lum qiyinchiliklarni his qilayotgan shaxslar taklif etiladi. Ijtimoiy psixologik treningning asosiy metodlariga guruhiiy munozalar, rolli o'yinlar va psixologik sezgirlikni oshiruvchi treninglar kiradi. T-guruh a'zolari odatda 7 kishidan 15 kishigacha bo'lib, mashg'ulotlar bir necha kundan bir necha oylarigacha davom etadi. T-guruhning ahamiyati shundan iboratki, u birinchidan, odamlar o'rtasida ilih o'zaro munosabatlarning shaklanishiga olib kelib, shaxsda birovni tushunishga intilish, uning manfaati yo'lida o'z qarashlarini ham qayta analiz qilish ehtiyojini paydo qiladi. Ikkinchidan, T-guruh a'zolari o'rtasida shunday umumiy "psixologik til" paydo bo'ladiki, ular tez orada o'zgaralarni va o'z his-kechinmalarini anglabgina qolmay, balki bir-birlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ularda muloqot mobaynida o'zini "o'zgalar" o'rniga qo'yish, ularning ichki olamini to'g'ri tushunish qobiliyati va istagi tarbiyalanadi.

Uchinchidan, T-guruhdagi mashg'ulotlar muloqot jarayonining turli murakkab qirralaridan tashqari, uning mazmuniiy tomonlari: bo'yicha ham ishtirokchilarni chiniqtiradiki, ular muomaladagi har bir ibora va imo-ishoraning tub ma'nosini tushunishga erishadilar. Masalan, "xayr, yaxshi qoling" iborasini uning qanday ohangda, qay holatda aytilishga qarab, suhbatdoshning "yashirin" niyatlarini o'qib olish va shunga ko'ra harakat qilishga o'rgatadi.

Ijtimoiy-psixologik treningnig metodik O'quvchi-yoshlariga quyidagilar kiradi:

O'quv jarayonida guruhda tashkil etilgan muloqot orqali guruhiiy jarayon yoki holatlardan individual holatlarga, ya'ni har bir ishtirokchining o'z shaxsiy "Meni" ni tushunishga olib kelish lozim. Chunki munozara yoki o'yinlar jarayonida ishtirokchilar vaziyatni yoki rolni faol o'zlashtirib, har bir holatdan o'zi uchun xulosa chiqarishga olib kelish zarur, yoki bqlmasa, interpsixik jarayondan intrapsizikka aylanish kerak.

T-guruhlarda muloqotning nutq shakllaridan tashqari, uning nutqsiz-noverbal shakllari ham keng qo'llanilishi, ya'ni har bir o'rganuvchi o'z xulq-

atvorini verbal nazorat qilishdan tashqari, o'z tanasi, har bir harakat, ritmning mohiyatini ham tushgan holda uni hayotda, amalda ishtishiga erishish zarur.

T-guruhning har bir ishtirokchisi albatta o'z-o'zini kuzatish kundaligini yuritmog'i, unga har galgi mashg'ulotdan so'ng o'z his-kechinmalari, muammolarini yechishdagi shaxsiy ishtiroki, tasavvurlari va boshqalarni odilona yozib borishi ham muhimdir.

T-guruhga a'zosi mashg'ulotlarni sira ham qoldirmaslikka harakat qilishi zarur, chunki bu narsa o'quv guruhining muhitiga, a'zolarning o'zaro munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Mashg'ulotlar maxsus xonalarda, shovqin-surondan xoli yerda tashkil etilishi, u yer did bilan bezalgan, shinam bo'lmog'i lozim.

T-guruh a'zolari mashg'ulotlarga o'zlari uchun qulay kiyimlarda kelishlari lozimki, bu anrsa boshqalarda ham, o'zida ham ortiqcha hissiyotlarni o'tkazuvchi trenerga alohida e'tibor berish zarur. U o'zi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, xushmuomala, did bilan kiyingan, har bir mashg'ulotga ataylab tayyorgarlik ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim. U o'z kayfiyati, munozara yoki o'yinga shaxsiy munosabati bilan mashg'ulotning tabiiy kechishiga xalaqit bermasligi, sabr-toqatli, madaniyatli bo'lishi zarur. Mashg'ulotlarni tashkil etish shakliga kelsak, u maqsad va mazmunga mos holda "yumaloq stol" atrofida, to'rtburchak stol atrofida, gilam ustida, ba'zan tik holda amalga oshirilishi mumkin.

Afsuski, T-guruhlar ayrim hollarda yirik shaharlardagi yirik sanoat korxonalari rahbarlarini muloqotga tayyorlash, mas'ul shaxslarni qayta tayyorlash kurslarida, psixologlar davrasidagi o'tkazilmoqda. Vaholanki, muloqotdagi bilimdonlikka erishish, "ijtimoiy aql" ga ega bo'lish barcha mutaxassislariga zarur. Amaliy psixolog xoh maktabda bo'lsin, xoh sanoat korxonasi yoki boshqa idora va o'quv yurtida bo'lmasin, mahalliy sharoitni chuqur o'rgangan holda, u yerda rahbariyat bilan kelishilgan holda T-guruhlari tashkil etmog'i va shu yo'sinda ham o'zining, ham atrofdagilarning bilimdonligini oshirib bormog'i zarur.

XULOSA

Tarbiyaviy jarayonning ijobiy o'sishiga tengdoshlar orasidagi shaxslararo munosabatlar darajasini ob'ektiv pedagogik nazorat qilmasdan erishish mumkin emas. Pedagogik nazoratsiz O'quvchi-yoshlarning shaxslararo munosabatlari strukturasi aniqlash mumkin emas, shunday ekan holatni yaxshi tomonga o'zgartirishga qodir bo'lgan sifatli pedagogik ta'sirni tanlashga asosli yondashuv bo'lmaydi. Bunday holatda bahoning yaxshi yoki yomon O'quvchi-yosh (sinf) kabi turi ularning sub'ektivligi tufayli nomuvofiqdir. Shu bilan bog'liq holda maktab o'qituvchilarini O'quvchi-yoshlar ilmiy- pedagogik ta'limning zamonaviy bosqichda samarali ta'lim va tarbiya berishini ta'minlovchi vositalarini qo'llashga tayyorgarligini kechiktirib bo'lmalik zaruratini ta'kidlash zarurdir, zero u integral pedagogika konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Integral pedagogika tamoyillarini amalga tadbqiq etish, shuningdek innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, olg'a intilishning keng spektori ularning o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoniga sekin astalik bilan tadbqiq etishni talab etadi. Yangi texnologiyalar faqat mavjudlarini ijodiy rivojlantirish asosida paydo bo'lar ekan O'quvchi-yoshlarning shaxslararo munosabatlarini biz integral pedagogika nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. Natijada quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin: yaxlit dunyoqarashning shakllanishiga, ma'naviy boy va mustaqil o'qishga hamda, o'zini baxshida etishga qodir ma'naviy qimmat shaxsning shakllanishini maqsad qilib olgan integral pedagogikada integral pedagogik diagnostika asosiga qurilgan integral sifat ko'rsatkichlar bo'lishini taxmin etuvchi integrallik tushunchasi yashiringan. Umumiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni beramiz:

- shaxslararo munosabatlar holatini ob'ektiv baholash uchun kiritilgan integral ko'rsatkichlar hisobiga ularning tabiatini o'rganishga bo'lgan pedagogik qarashlar tizimidan unumli foydalanilgan - o'smirlarning shaxslararo munosabatlarini tadqiq etishning ma'lum bo'lgan metodlarini samarali qo'llashni

sezilarli kengaytirish imkoniyati mavjudligi qiymat ko'rsatkichlarini tadbiq etish bilan shaxslararo munosabatlarni modifikatsiya qilish orqali isbotlangan;

- pedagoglar tarbiyaviy ishining oldindan aniqlangan, maqsadga yo'naltirilgan metodlarini amaliyotga tadbiq etish imkoniyati va qiymat ko'rsatkichlari asosida uni baholash sifati asoslangan.

-biz tavsiya etayotgan metodika sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, tarbiyachilar, maktab psixologlari va ijtimoiy pedagoglar amaliyotiga O'quvchi-yoshlar jamoasida shaxslararo aloqalar dinamikasi monitoringi uchun pedagogik ta'sirga yoki O'quvchi-yosh hayotidagi boshqa muhim voqealarga javob tariqasida tadbiq etildiki, bu integral ko'rsatkichlar asosida turli jamoalarni ulardagi emotsional-kommunikativ jipslik darajasi bo'yicha qiyoslashni amalga oshirishga imkon beradi;

- taklif etilayotgan metodika modifikatsiya mos kelgan holatda tarbiyaviy ishlar sifatini yaxshilash vazifasi ustida ish olib borayotgan ishlab chiqarish, harbiy, ijodiy va boshqa jamoalarda qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» – Toshkent: Sharq, 1997-65 b.
2. Karimov I.A. «O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat». Toshkent: O‘zbekiston 1992-62 b.
3. Karimov I.A. «Yangi uyni qurmay turib, eskisii buzhang» – Toshkent: O‘zbekiston 1993. – 24 b.
4. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz». 8-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
5. «Axloq-odobga oid hadis namunalari». – Toshkent: Fan, 1990, – 72 b.
6. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 160 b.
7. Inomova K.M. «Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi» –Toshkent: Fan, 1999, – 151 b.
8. Yo‘ldoshev J.G‘. Xasanov S. «Avestoda axloqiy-ta’limiy qarashlar». – Toshkent: O‘qituvchi 1992, – 28 b.
9. Kaykavus. «Qobusnoma». – Toshkent: O‘qituvchi 1986, – 118 b.
10. Musurmonova O. «Oila ma’naviyat-milliy g‘urur». – Toshkent: O‘qituvchi. 1999, – 200 b.
11. Munavvarov A.K. «Oila pedagogikasi». – T.: O‘qituvchi, 1994, – 112 b.
12. Ochilova M. Ochilova N. «O‘qituvchi odobi». – Toshkent: O‘qituvchi, 1993\7. – 136 b.
13. Ochilova M. «Axloqiy tarbiya». – Toshkent: O‘qituvchi, 1979, – 232 b.
14. Jo‘raev A.J. Tarbiyaviy darslarni o‘tish. T.: “O‘qituvchi”, 1994.
15. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T.: “O‘qituvchi”. 1994.
16. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. T.: 1996 y.

17. Ochil S. Mustaqillik va tarbiya masalalari. T.: “O‘zbekiston”, 1995.
18. Popov G.X. O‘quvchining shaxsiy ishini tashkil etish. T.: “O‘qituvchi”, 1992 y.
19. Solixo‘jaeva S.S. Bolalar va o‘smirlar gigenasi. T.: “Ibn Sino”, 1991.
20. Uzoqov X., G‘ozieva E., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T.: “O‘qituvchi”. 1992.
21. Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy, 1993.
22. Frolov P.T. Yosh direktor maktabi. T.: “O‘qituvchi”, 1991.
23. Jo‘raev A. Tarbiyaviy darslar o‘tish. T.: “O‘qituvchi”, 1994.
24. Hasanboeva O. Uzaytirilgan guruhlar tarbiyaviy ishlar. T.: “O‘qituvchi”, 1994.
25. Safo Ochil. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. T.: “O‘qituvchi”, 1995.
26. Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari. T.: “Fan”, 1994.